



PROGNOZLASHTIRISH VA MAKROIQTISODIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

PROGNOZLASHTIRISH VA MAKROIQTISODIY
TADQIQOTLAR INSTITUTINING 2022 YIL BIRINCHI
YARMIDAGI FAOLIYATI HAQIDA

Iyul, 2022 y.

Mundarija:

Ilmiy ishlar **3**

Kadrlarni
tayyorlash **15**

Xorijiy tashkilotlar
bilan hamkorlik **19**

Institutning
media faoliyati **14**

GREEN HUB
faoliyati **17**

Institut xodimlari **20**



I. ILMIY ISHLAR

1.1. Ilmiy maqolalarni xorijiy va mahalliy jurnallarda nashr qilish

Institut xodimlari tomonidan hisobot davrida **2** ta uslubiy qo'llanma, **34** ta ilmiy-amaliy maqola, xalqaro hamda respublika miqyosidagi **9** ta ilmiy anjuman materiallarida tezislar chop etildi.

Shu jumladan, Web of Science va Scopus bazalariga kiritilgan nashrlarda **4** ta, Rossiya ilmiy iqtiboslar indeksi (RSCI) bazasiga kiritilgan nashrlarda **15** ta, **2** ta xorijiy, **10** ta mahalliy ilmiy jurnal hamda **3** ta gazetada ilmiy-ommabop maqolalar e'lon qilindi.

Ilmiy xodimlar tomonidan o'tgan yarim yilda **7** ta xalqaro va **2** ta respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida ma'ruza tezislari chop etildi.

1.2. Loyihalar tomonidan dolzarb iqtisodiy muammolar bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlar

1. Strategik rejalashtirish hamda makroiqtisodiy parametrlar prognozlarini ishlab chiqish masalalari bo'yicha loyiha doirasida iste'mol bozoridagi inflyatsiya tendensiyalari, omillari va inflyatsiyani tartibga solish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Hisobot davrida loyiha xodimlari tomonidan quyidagi ilmiy ishlar amalga oshirildi:

1. [O'zbekistonda inflyatsiya tendensiyalari va omillarini](#) o'rganish bo'yicha tadqiqot o'tkazildi. Hisob-kitoblar savdo hamkori bo'lgan mamlakatlardagi inflyatsiya O'zbekistondagi inflyatsiyaga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. 2022 yilning may oyida yillik iste'mol narxlar indeksi 11 foizni tashkil etdi. Uning tarkibida, oziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasi 6 foizga, noziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar inflyatsiyasi, mos ravishda 3,6 va 1,4 foizga to'g'ri keldi.

2. Loyiha ekspertlari Turkiyadan qilinayotgan import hajmi [O'zbekistonda iste'mol narxlarining o'sish xavfini yuzaga keltiradimi, degan savolga javob berdi](#). PMTI ekspertlarining hisob-kitoblariga ko'ra, Turkiyadan import qilingan inflyatsiya taxminan 0,28 foiz punktiga teng.

3. [Ekspertlar so'nggi oylarda naqd pulga talabning oshishiga sabab bo'layotgan omillarni tahlil qildi](#). 2022 yilning 1 iyun holatiga ko'ra, muomaladagi naqd pullar hajmi 36,9 trln. so'mga yetgan. Bu 2017 yilning 1 iyun holatidagiga (13,2 trln. so'm) nisbatan 2,8 barobar ko'p. Aprel-may oylaridan boshlab iqtisodiy faollikning jadallashuvi naqd pulga bo'lgan talabni oshiradi va ushbu tendensiya noyabr oyiga qadar davom etadi.

4. [Ekspertlar moliyaviy xizmatlar orasidan bank xizmatlarini tahlil qilib](#), mavjud muammolar bo'yicha o'z taklif va mulohazalarini bildirdi. Tahlil natijalariga ko'ra, bank sohasida davlat ulushining yuqoriligi (bank aktivlarining 80 foizi davlat ulushi mavjud banklarga tegishli) asosiy muammolardan biri sifatida ko'rsatilgan.

2. Tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlarini monitoring qilish va xalqaro hamkorlik yo'nalishlarini tahlil qilish masalalari bo'yicha loyiha xodimlari tomonidan quyidagi ilmiy ishlar qilindi:

1. [To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va ichki investitsiyalarning o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlardagi iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilindi.](#)

2. [To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar \(TTXI\) oqimiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqildi.](#) Tahlil natijalariga ko'ra, geografik omil TTXI ni jalb qilishda asosiy omil ekanligi aniqlandi.

3. [So'nggi ikki yil ichida O'zbekistonning tashqi raqobatbardoshligidagi o'zgarishlar o'rganildi.](#) Ichki va tashqi inflyatsiya ta'sirida mamlakatning haqiqiy samarali valyuta kursi kuchayishi yoki zaiflashishi mamlakatning asosiy savdo hamkorlariga nisbatan hozirgi raqobatbardoshligini aks ettiradi.

4. [O'zbekiston mahsulotlarining qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan yangi potensial eksport bozorlari aniqlandi.](#) Natijalarga ko'ra, Pokiston, Eron va Ozarbayjon kabi davlatlar eng yirik istiqbolli eksport bozorlari bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, 12 ta potensial mamlakatga ma'lum turdagi mahsulotlarni eksport qilish mumkin.

3. Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini tarkibiy o'zgartirish masalalari bo'yicha loyiha tomonidan qurilish sanoati, energetikani rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

1. [O'zbekistonda sement bozorini o'rganish.](#)

Buning natijasida 2010-2021 yillarda respublika hududlarida sement ishlab chiqarish konsentratsiyasi darajasi qanday o'zgargani aniqlandi.

2. [O'zbekistonda uy-joy bozorini o'rganish.](#)

O'zbekistonda uy-joy bozorining hozirgi holati va uni yanada rivojlantirish imkoniyatlari aniqlandi.

4. Investitsiya va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish masalalari bo'yicha loyiha

O'zbekistondagi investitsiyalarga bog'liq masalalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib bordi. Loyiha xodimlari tomonidan 2022 yilning birinchi yarmida quyidagi tadqiqotlar o'tkazildi:

1. ["Yashil moliyalashtirish vositalari"](#). Loyiha xodimlari dunyo va O'zbekistonda "yashil" loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qildi.


2. ["Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish qay darajada?"](#).

Investitsiyalar O'zbekiston sanoatida qo'shilgan qiymatning o'sishiga qanday ta'sir qilishi baholandi.

3. Loyiha xodimlari tomonidan tayyorlangan infografikalar:

[2022-2024 yillarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirishning asosiy parametrlari.](#)

[2022-yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar.](#)



5. Agrosanoat kompleksini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha loyiha

tomonidan O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligining hozirgi holati va oziq-ovqat xavfsizligi, meva-sabzavotlar eksportini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Loyiha xodimlari tomonidan hisobot davrida quyidagi ilmiy tadqiqotlar o'tkazildi:

1. [Gilos eksporti uchun eng istiqbolli bozorni aniqlashga qaratilgan tadqiqot](#). Jahon gilos bozorining imkoniyatlarini skanerdan o'tkazish orqali Xitoy bozori gilos eksporti uchun eng yaxshi imkoniyat ekanligi aniqlandi.
2. [Tashqi bozorlarda O'zbekiston meva-sabzavotlarining raqobatbardoshligini baholash](#). Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2017-2021 yillar oralig'ida dunyo bozorlarida eng katta qiyosiy ustunlikka ega tovarlar 10 taligi aniqlandi.
3. [O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligi global indeksida](#). 2021 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligi reytingida ikki pog'ona ko'tarildi.
4. [O'zbekistonda qishloq xo'jaligini isloh qilish](#). Agrar tarmoqni erkinlashtirish, klaster tizimini barpo etish, ko'p sohalarni o'z ichiga olgan fermer xo'jaliklarini shakllantirish, shuningdek, meva-sabzavot mahsulotlari eksportchilarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar ko'rib chiqildi.
5. [O'zbekiston Respublikasining meva-sabzavot mahsulotlari eksportiga oid infografikalar](#) tayyorlandi.

6. [Har chorakda O'zbekiston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha infografika tayyorlandi](#).

7. ["Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi doirasida qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish"](#), fermer va dehqonlarning daromadlarini 2 barobar oshirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar ko'zda tutilayotganiga oid videoroliklar tayyorlandi.

6. **Logistika infratuzilmasini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish bo'yicha loyiha** xodimlari tomonidan quyidagi ilmiy ishlar qilindi:

1. ["Yashil" avtotransport haqiqatan ham CO₂-emissiyasini kamaytira oladimi?](#) (O'zbekiston misolida tahlil).

Loyiha mutaxassislari yonilg'ida harakatlanuvchi avtotransport vositalari havoga chiqarayotgan CO₂ miqdorini hisobladi va uni mazkur transport vositalari elektr energiyasida harakatlangandagi holat bilan taqqoslab. Respublika hududida 2020 yilda benzin va dizel yonilg'isida harakatlanuvchi avtomobillar chiqargan zararli gazlar emissiyasi 7,69 million tonnaga teng bo'lganini hisoblab chiqdi, shuningdek, mazkur transport vositalari elektr energiyasi vositasida harakatlangan taqdirda, emissiya hajmi 35,11% ga kamayishini aniqladi.

36 O'zbekiston tashqi bozorlarda yaqqol qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlarining 36 ta guruhi mavjud.

78 Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksida 2019 yildan 2021 yilgacha O'zbekiston 2 pog'ona yuqorilab, 113 ta mamlakat orasida 78-o'rinni egalladi.

124 2020-yilda O'zbekistonda go'sht yetishtirish tufayli 124 million tonna CO₂-ekv. issiqxona gazlari atmosferaga chiqarilgan.



35,11%

Elektromobillar yonilg'ida harakatlanuvchi avtotransportlarga nisbatan 35,11% kamroq CO₂ chiqarishi mumkin.

4,6%

Jamoat transportining sifatini 10 dan 1 punktga yaxshilash undan foydalanish ehtimolini 4,6% ga oshirishi aniqlandi.

794

2016 yildan 2021 yilgacha Davlatga qaramlik indeksi 186 dan 794 gacha ko'tarildi.


23

Hokim yordamchisi tomonidan tavsiya beriladigan 23 turdagi kredit, subsidiya, moddiy yordam turlari bo'yicha batafsil ma'lumot tayyorlandi.

2. Davlatga qaramlik indeksi. Mazkur indeks Meros fondi (The Heritage Foundation) tomonidan ishlab chiqilgan va AQSh uchun mo'ljallangan indeks (Index of Dependence on Government) ga asoslangan. Indeks kelgusida aholining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan hukumatga qaramligini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan ijtimoiy dasturlar uchun sarf-xarajatlarni aniqlaydi. 2016 yildan 2021 yilgacha indeks 186 dan 794 gacha ko'tarildi. Uy-joy, sog'liqni saqlash va ijtimoiy yordam kabi ko'rsatkichlar indeksning o'zgarishiga eng katta ta'sir ko'rsatdi.

3. Jamoat transporti sizni qanoatlantiradimi? (Toshkent shahri misolida)
Jamoat transporti muammolarini o'rganish maqsadida aholi o'rtasida so'rov o'tkazildi. Unda Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi 1 315 kishi ishtirok etdi. Transport vositasini kutish vaqtini har 10 daqiqaga qisqartirish subyektiv baholashni 10 dan 0,4 ballga, kelish va harakat jadvaliga rioya qilish, onlayn kuzatish imkoniyati sifatni jami 1,65 ballgacha oshirishi mumkin (har bir tarkibiy qism alohida 0,55 ball). Subyektiv sifatni 1 punktga yaxshilash jamoat transportini tanlash ehtimolini 4,6% ga oshirishi aniqlandi.

Shahar jamoat transporti tahlili (Toshkent shahri misolida)



*Jamoat transportining sifat ko'rsatkichi so'rovnoma asosida jamoat fikridan kelib chiqib ishlangan

7. Hududlarni kompleks rivojlantirish va salohiyatini oshirish masalalari bo'yicha loyiha doirasida O'zbekiston Respublikasi hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xususiyatlarini baholash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Hisobot davrida loyiha xodimlari tomonidan quyidagi ilmiy ishlar amalga oshirildi:

1. [Mahallada hokim yordamchisi ishini samarali tashkil etish bo'yicha qo'llanma](#)

Loyiha mutaxassislari tomonidan hokim yordamchisi o'z ishida e'tibor qaratishi kerak bo'lgan 6 ta muhim qoida, 10 ta asosiy vazifa, 4 ta yo'nalish, shuningdek, tavsiya qiladigan 23 turdagi kreditlar, subsidiyalar va moliyaviy yordam bo'yicha batafsil ma'lumot berildi.

2. [O'zbekiston sanoatida hududiy mutanosiblikni baholash](#)

(ishlab chiqarish konsentratsiyasi omili bo'yicha). Xerfindal-Xirshman indeksidan foydalangan holda hududlar sanoatidagi tarkibiy o'zgarishlar, hududiy joylashish va ishlab chiqarish xususiyatlari, hududlararo nomutanosibliklar baholandi.

3. [O'zbekiston hududlarining iqtisodiy faolligi](#)

12 ta xususiy indikatorni o'z ichiga olgan ko'rsatkichlar tizimi (sanoat, tadbirkorlik, tashqi iqtisodiy faoliyat) asosida hududlarning iqtisodiy faoliyati reytingi baholandi, hududlarni rivojlantirishni cheklovchi omillar aniqlandi.

4. [O'zbekiston hududlaridan Rossiyaga nima eksport qilinadi?](#)

Mamlakat hududlarining Rossiyaga tovarlar va xizmatlar eksporti baholandi, yetakchi eksport qiluvchi hududlar, mahalliy mahsulotlarni, shu jumladan yuqori texnologiyali tovarlarni eksport qilishda hududlarning raqobat ustunliklari aniqlandi.

5. [O'zbekiston hududlarida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi](#)

(2022 yilning yarim yilligi bo'yicha). Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish dinamikasi va hozirgi holati, hududlar, shu jumladan, qishloq joylarni iqtisodiy rivojlantirishga qo'shgan hissasi tahlil qilindi.


6. [Hududlar sanoatini texnologik transformatsiya qilish yo'lida](#)

Mamlakat hududlari sanoatining texnologik tarkibini tahlil qilish asosida hududlarning yuqori va o'rta texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlab chiqarishni sifatli diversifikatsiya qilishdagi raqobat ustunligi aniqlandi.

7. [Tuman darajasida mutanosib rivojlanish qonuniyatlari](#)

Mutaxassislar hududlarning markazdan uzoqda joylashganligi, aholi zichligi omillarini hisobga olgan holda tadbirkorlik faoliyati turlari bo'yicha ixtisoslashuvi va ijtimoiy obyektlarni mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashtirish bilan bog'liq masalalarni Toshkent viloyatining Bo'ka tumani misolida o'rganib chiqdi.





8. Go'sht narxi yog'ingarchilikka bog'liqmi?

PMTI mutaxassislari iqlim o'zgarishi, xususan, yog'ingarchilik miqdori va havo haroratining go'sht va go'sht mahsulotlari narxlarini oshishiga ta'sirini baholadi, O'zbekistonda mol go'shti narxi oshishining mavsumiyliqi aniqlandi.

8. **Inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy tabaqalashuv masalalari bo'yicha loyiha**

mutaxassislari O'zbekiston Respublikasida aholi farovonligi va ehtiyojlari, ijtimoiy muammolarni o'rganish, inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha quyidagi ilmiy tadqiqotlarni olib bordi:

1. Tashabbusli byudjetlashtirish mexanizmidan foydalangan holda mamlakatimizda aholini byudjet mablag'larini taqsimlash jarayoniga jalb etish va uning afzalliklari o'rganib chiqildi.

2. O'zbekistonda ta'lim xabi raqobatbardoshligi omillari. PMTI ekspertlari oliy ta'lim olish imkoniyatlarini baholab, O'zbekistonda ta'lim xabini shakllantirish omillarini aniqladi.

3. Hududlar bo'yicha mehnat bozori indeksini hisoblab chiqish natijasida hududiy mehnat bozorlari "rivojlangan", "yaxshi rivojlanmagan" va "orqada qolayotgan" mehnat bozorlariga ajratildi.

4. O'zbekiston mehnat bozorida tarmoqlar va mutaxassisliklar bo'yicha talabning shakllanishini natijasida mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar aniqlandi.

5. Aholi ish haqining oliy ta'lim darajasiga bog'liq ravishda o'sishi bo'yicha tadqiqot. Ushbu tadqiqotda Jizzax viloyati misolida ta'lim darajasining ish haqiga ta'siri baholandi.

6. Ta'lim darajasi ish haqiga qanday ta'sir qiladi? Iqtisodiyot tarmoqlarida ta'lim darajasi ish haqiga qanday ta'sir qilishi empirik baholash yordamida aniqlandi.

7. 2026 yilgacha O'zbekiston mehnat bozorida kadrlarga bo'lgan talabning shakllanishini baholash tufayli yaqin kelajakda qaysi mutaxassisliklarga talab yuqori bo'lishi aniqlandi.

8. O'zbekistonlik mehnat muhojirlari uchun yangi yo'nalishlarning baholanishi natijasida ular faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan bir qancha mamlakatlar aniqlandi.



Davlat muassasalarida bo'sh ish o'rinlarining **55%** dan ortig'i ish qidiruvchilardan oliy ma'lumot talab etadi.

O'zbekistonda fan doktori(DSc) ilmiy darajasiga ega bo'lish daromadlarni **61%** ga, PhD - **41%** ga oshiradi.

Donor mamlakatlardagi ingliz tilini bilish talabi O'zbekistondan ketayotgan mehnat muhojirlari oqimini **55%** ga kamaytiradi.

O'zbekiston mehnat bozorida talab taklifga nisbatan **1,2 barobar** past ekani ma'lum bo'ldi.

1.3. Ilmiy tadqiqot ishlari: reja bo'yicha tayyorlangan tahliliy ma'lumotnomalar

Institutning tasdiqlangan rejasiga muvofiq, 2022 yilning birinchi yarmida 13 ta tahliliy axborotnoma va ishlanmalar tayyorlandi.

1. "Yangi O'zbekistonni shakllantirish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqarish-hududiy tuzilmalarini istiqbolli rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari"

2018-2021 yillarda ishlab chiqarish hududiy tuzilmalarini rivojlantirish tendensiyalari aniqlandi. O'rta muddatli istiqbolda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, texnoparklar va klasterlarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Mavjud muammolar aniqlanib, ularni hal etish yo'llari taklif etildi.

2. "2022 yilning yanvar-aprel oylarida qurilish materiallari sanoati rivojlanishining umumiy holati"

Prognoz parametrlarining bajarilishi baholandi, tahlil qilinayotgan davrda sohadagi taraqqiyot va muammolar aniqlandi. Sohani yanada barqaror rivojlantirish, samaradorlikni, eksport salohiyatini oshirish yuzasidan tegishli takliflar tayyorlandi.

3. "Mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash bo'yicha sifat ko'rsatkichlari va mezonlarini ishlab chiqish"

Tadqiqot davomida mahallalarda faoliyat yurituvchi hokim yordamchilarining vazifalari, mahallalardagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni baholash metodikasi ishlab chiqildi. Unda iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini hokim yordamchilarining vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi 3 ta blokda tuzish tavsiya etildi.

- 1-blok. Mahallada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar tizimi.
- 2-blok. Mahallaning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi ko'rsatkichlari tizimi.
- 3-blok. Hokim yordamchilari faoliyati samaradorligini KPI asosida baholash ko'rsatkichlari tizimi.

4. "Hududlarda aholi farovonligi va kambag'allik darajasini baholash"

Jizzax viloyati bo'yicha maxsus tuzilgan so'rovnoma asosida viloyatning barcha tumanlarini qamrab olgan holda aholi farovonligini ta'minlashda erishilgan yutuqlar, mavjud muammolar, ijtimoiy xavf-xatarlar aniqlandi.

5. "2022 yilning yanvar-aprel oylarida O'zbekistonda qurilish ishlari rivojlanishining umumiy holati"

Turli hududlarda qurilish ishlarining borishi tahlil qilinib, sohani rivojlantirishdagi tendensiya va muammolar ko'rib chiqildi. Pudrat faoliyatini yanada rivojlantirish, ayrim yo'nalishlarda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, mo'ljaldagi qurilish ishlarini bajarish yuzasidan tegishli takliflar tayyorlandi.

6. "O'zbekiston aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash"

Oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish dinamikasi, jumladan, aholining kam ta'minlangan va badavlat qatlamlari ovqatlanishidagi muvozanat tahlil qilindi.

7. "2021 yil va undan oldingi davrda O'zbekistondagi makroiqtisodiy vaziyat sharhi"

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi va MDH mamlakatlari doirasidagi mavqei tahlil qilindi, iqtisodiy o'sishning tarmoq drayverlari, xususan, taklif omillari va resurslar samaradorligi aniqlandi. Shuningdek, tarkibiy iqtisodiy o'zgarishlar va tarkibiy ko'rsatkichlar dinamikasi hamda bank sektorining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi tahlil qilindi.

8. "O'zbekistonda inflyatsiya omillari"

PMTI mutaxassislari O'zbekistonda inflyatsiyaga ta'sir etuvchi omillar va ularning dinamikasini o'rganib chiqdi. Savdo hamkorlari bo'lgan mamlakatlardagi inflyatsiya O'zbekistondagi inflyatsiyaga ta'sir etuvchi asosiy omil ekanligi aniqlandi.

9. “2022 yilning yanvar-may oylarida O‘zbekistonda qurilish ishlari rivojlanishining umumiy holati”

Mamlakatimizning turli hududlarida qurilish ishlarining borishi, sohaning rivojlanish tendensiyalari va muammolari ko‘rib chiqildi. Tarmoqni yanada rivojlantirish, qurilish ishlari prognozini bajarish yuzasidan tegishli takliflar tayyorlandi.

10. “Integral farovonlik indeksi” (uslubiy qo‘llanma)

Jahon amaliyoti va statistikasini o‘rganib, aholi farovonligini (respublika, tuman va shaharlar miqyosida) integral ko‘rsatkich asosida baholash uchun ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi.

11. “Kelajakda demografik jarayonlarning ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimlariga ta‘sirini baholash”

Demografik istiqbol prognoz qilindi va uning ta‘lim hamda sog‘liqni saqlash tizimlariga qanday ta‘sir qilishi mumkinligi oldindan aniqlandi.

12. “Bo‘ka tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish”

Toshkent viloyati Bo‘ka tumanining mavjud salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, mahallalar bo‘yicha 2022-2026 yillarda iqtisodiy o‘sish va kambag‘allikni qisqartirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Bo‘ka tumanidagi “Jo‘raobod” MFY aholisi tomorqasini muntazam ravishda sug‘orish rejasi ishlab chiqildi. Toshkent viloyatining Bo‘ka tumanidagi mahallalarda xizmat ko‘rsatish obyektlari joylashuvining hozirgi holati tahlil qilindi va qo‘shimcha obyektlarni qurish bo‘yicha takliflar tayyorlandi.

2017-2021 yillarda Bo‘ka tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha jadvallar maketi ishlab chiqildi va Toshkent viloyati statistika bosh boshqarmasiga jo‘natildi. Bo‘ka tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha statistik baza to‘planib, tahliliy ishlar olib borildi.

13. “O‘zbekiston meva-sabzavot mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligini baholash”

Ekspertlar tomonidan meva va sabzavotlarning 127 ta tovar guruhi baholandi. Tadqiqot chog‘ida tashqi bozorda aniq qiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan tovarlarning 36 ta guruhi aniqlandi. Jahon bozorida asosan sarxil meva-sabzavotlar yoki chuqur qayta ishlanmagan mahsulotlar raqobatbardosh ekani ma‘lum bo‘ldi.

Shu bilan birga, Institut xodimlari tashabbusi bilan qo‘shimcha tadqiqotlar olib borildi.

Ushbu tadqiqotlar respublikamizning dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini tahlil qilish, aniqlash va ularni hal etish bo‘yicha chora-tadbirlar va takliflar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotlarning natijalari tahliliy ma‘lumotnoma shaklida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligiga taqdim etildi. Bular quyidagi ishlanmalar:

1. “O‘zbekiston hududlarining Rossiyaga eksportini baholash”

Hududlarning eksport salohiyatini oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagi omillarni hisobga olgan holda baholandi: raqobat ustunligi, hududlarda eksport konsentratsiyasi va diversifikatsiyalash darajasi.



2. “2021 yil yakunlari bo‘yicha birja savdolarida monopol va yuqori likvidli mahsulotlarning sotilishi to‘g‘risida ma‘lumot”

Birja faoliyati tahlil qilindi. Monopol va yuqori likvidli mahsulotlarni ishlab chiqarish va iste‘mol qilishning yillik, choraklik va oylik jadvallari hamda ularni birja savdolariga qo‘yish mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha takliflar berildi.

3. “2020 yilda O‘zbekistonni barqaror rivojlantirish vazifalari va milliy maqsadlarni amalga oshirishning asosiy natijalari”

“2020 yilda O‘zbekistonni barqaror rivojlantirish vazifalari va milliy maqsadlarni amalga oshirishning asosiy natijalari” mavzusi bo‘yicha ixtiyoriy milliy hisobot tayyorlandi.

4. “Mahallalarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish salohiyati va mexanizmi” (Xorazm viloyati misolida)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 14-dekabr kuni “2022 yilda hududlarda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” mavzusiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida Xorazm viloyati misolida mahallalarda xizmat ko‘rsatish sohasining holati tahlil qilindi.

Tahlillar asosida mahallalar miqyosida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish imkoniyatlari aniqlanib, uni amalga oshirish mexanizmi bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.


5. “Sanoatga kiritilgan investitsiyalar samaradorligini baholash”

Investitsiyalarning sanoat tarmoqlariga jalb qilinishi, taqsimlanishi va ulardan samarali foydalanilishi tahlil qilindi. Sanoat tarmoqlariga umumiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish siyosatining samaradorlik indeklari hisoblab chiqildi.

1.4. Hamkorlikda bajarilayotgan ilmiy ishlar

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi, Yevropa Ittifoqi va Adliya vazirligining buyurtmasi bo‘yicha “BMTTD loyihasi doirasida PMTI xodimlari tajriba tariqasida tanlab olingan 2 ta tumanda samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari tizimini joriy etish” deb nomlangan loyihada ishtirok etmoqda.

Institut ekspertlari mahalliy ijro hokimiyati faoliyatini samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari (KPI) asosida baholash bo‘yicha Kosonsoy va Dehqonobod tumanlarida mahalliy hokimiyat vakillari uchun seminar-trening o‘tkazdi.



Seminar-treningda BMTTD ekspertlari hamda Namangan viloyati va Kosonsoy tumani hokimliklari vakillari, Xalq deputatlari tuman kengashi deputatlari va boshqa qator tashkilotlarning vakillari ishtirok etdi.

Seminar-treningda BMTTD va Yevropa Ittifoqining "O'zbekistonning qishloq hududlarida davlat xizmatlarini taqdim etishni takomillashtirish va mahalliy boshqaruv darajasini oshirish" deb nomlangan qo'shma loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar natijasi ko'rib chiqildi hamda boshqaruvda yanada yaxshiroq natijaga erishish yo'llari bo'yicha maslahatlar berildi. Seminar-treningda faol ishtirok etganlarga sertifikatlar topshirildi. Kelajakda bu (KPI) tizimni barcha hokimliklarda joriy etish ko'zda tutilmoqda.

1.5. O'tkazilgan so'rovlar

PMTI xodimlari tomonidan bir qancha ijtimoiy so'rovlar o'tkazildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad aholi farovonligi va yashash sharoitini aniqlash.

1. [Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti xodimlari Samarqand viloyati misolida hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy holatni o'rganishga qaratilgan tadqiqotda ishtirok etdi.](#)

Samarqand viloyati misolida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini o'rganish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun takliflarni ishlab chiqish bo'yicha 10 ta ishchi guruh tashkil etildi.

- Uy xo'jaliklarining farovonligini o'rganish bo'yicha ishchi guruh;
- Qishloq xo'jaligini o'rganish bo'yicha ishchi guruh;
- Sanoat sohasini o'rganish bo'yicha ishchi guruh;
- Xizmat ko'rsatish sohasini o'rganish bo'yicha ishchi guruh;
- Investitsiya loyihalarini o'rganish bo'yicha ishchi guruh;
- Moliya bozorlari faoliyatini o'rganish bo'yicha ishchi guruh;
- Davlat tashkilotlari faoliyatini o'rganish bo'yicha ishchi guruh;
- Infratuzilmalar bilan bog'liq masalalarni o'rganish bo'yicha ishchi guruh;
- Ijtimoiy infratuzilmalar bilan bog'liq masalalarni o'rganish bo'yicha ishchi guruh;
- Mehnat bozorini o'rganish bo'yicha ishchi guruh.

Ishchi guruhlarning **4 tasi** Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti rahbarligi ostida faoliyat olib bordi.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning qanday natija berayotgani Samarqand viloyatining barcha shahar va tumanlarida **xizmatlar sohasi yo'nalishida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar va kichik biznes subyektlari (158 ta) misolida o'rganildi.** Uchrashuvlar, muhokamalar va fokus-intervyularning natijalari asosida muammolar tizimlashtirilib, Samarqand viloyati bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqildi.

Qishloq xo'jaligida klaster tizimini joriy qilish tufayli erishilgan natijalar va mavjud muammolarni chuqur tahlil etish maqsadida Samarqand viloyatining Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Narpay, Oqdaryo, Pastdarg'om, Paxtachi tumanlarida faoliyat olib borayotgan **paxtachilik va g'allachilik yo'nalishidagi tasodifiy tanlangan 130ta fermer xo'jaligi misolida so'rov o'tkazildi.**



2020-2022 yillarda Samarqand viloyatida **davlat va hududiy investitsiya dasturlarini amalga oshirish natijalari**, investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning sabablari joylarga chiqib o'rganildi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqildi. Samarqand viloyatidagi 2 ta shahar va 14 ta tumanda 87 ta investitsiya loyihasining amalga oshirilishi o'rganildi.

Ishchi guruh a'zolari Samarqand viloyatining **infratuzilmalarini o'rganish maqsadida elektr energiyasi, tabiiy gaz ta'minoti, ichimlik suvi, yo'l-transport sohaslariga** oid ma'lumotlar bilan tanishdi va davlat dasturlari doirasida 2017-2021 yillarda amalga oshirilgan ishlarga oid ma'lumotlarni tahlil qildi.

Tadqiqot jarayonida tuman va shaharlarda aholi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida so'rovlar o'tkazildi, tuman va shaharlarning rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilindi, shuningdek, qabul qilingan dasturlar doirasida ko'zlangan maqsadlarga erishish darajasi baholandi.

2. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti xodimlari tomonidan Farg'ona viloyatida [“Hududlarda aholi farovonligi va kambag'allik darajasini baholash”](#) mavzusida so'rov o'tkazildi. (Inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy tabaqalashuv masalalari bo'yicha loyiha xodimlari tomonidan).

So'rov davomida **Farg'ona shahri** va viloyatida joylashgan 32 ta mahalladagi 432 ta xonadon qamrab olindi. Maxsus tayyorlangan so'rovnoma uy xo'jaliklari pasporti, uy xo'jaligi a'zolarining salomatligi, daromadi va bandligi, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlarni o'z ichiga olgan. Tadqiqot natijalari tahliliy axborot ko'rinishida tayyorlandi.



3. Jizzax viloyati bo'yicha maxsus tuzilgan so'rovnoma asosida tayyorlangan hamda viloyat tumanlarida aholi farovonligini ta'minlashda erishilgan yutuqlar, mavjud muammolar, ijtimoiy xavf-xatarlarni qamrab olgan tahliliy hisobot Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga yuborildi. Shu bilan birga Jizzax viloyati misolida ta'lim darajasining ish haqiga ta'siri baholandi.






II. INSTITUTNING MEDIA FAOLIYATI

2.1. Xodimlarning OAV orqali chiqishlari (intervyu, videoroliklar, press-relizlar, infografikalar).

2022 yilning dastlabki yarmida PMTI xodimlari ommaviy axborot vositalari – O‘zbekistondagi telekanallar, ijtimoiy tarmoqlar, saytlar, gazeta va jurnallarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va ularni tahlil qilish asnosida erishilayotgan yutuqlar, mavjud muammolar va ularni hal etish bo‘yicha tavsiya va takliflar bilan faol chiqishlar qildi.



PMTI katta ilmiy xodimi Odiljon Nazarov “O‘zbekiston 24” telekanalidagi “Biz va dunyo” dasturida O‘zbekistonning ilk bora “BRIKS plus” sammitidagi ishtiroki va iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlari yuzasidan o‘z fikrlarini bildirdi



Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti eksperti, Elnora-xan Yakubova O‘zbekiston24 telekanalida “Iqtisodiy o‘shish drayverlari: metodologiya va amaliyot” mavzusidagi tadqiqot natijalarini taqdim etdi



Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti eksperti, I.f.d Nodirbek Rasulov Uzreport telekanalining “Aspekt ko‘rsatuvida Yagona energetika halqasi mavzusida intervyu berdi

Hisobot davrida institut ilmiy xodimlari tele- va radiokanallar orqali efirga uzatilgan lavhalar, xabarlar, shuningdek, tayyorlangan videoroliklarda **90 marotaba ishtirok etdi**, **42 ta press-reliz hamda 99 ta infografika tayyorlandi**.

2.2. “Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar” ilmiy jurnali.

Institutda joriy yilning birinchi yarmida “Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar” ilmiy jurnalining yanvar-mart oylariga mo‘ljallangan 1-soni nashrdan chiqarildi. Jurnalda chop etilgan 20 ta ilmiy maqoladan 10 tasining muallifi institut ilmiy xodimlari va bittasining muallifi institut tayanch doktorantidir.



III. KADRLARNI TAYYORLASH

3.1. Doktoranturada ilmiy kadrlarni tayyorlash

Institut doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-sonli Qaroriga asosan doktorantura va mustaqil-izlanuvchi shaklida fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun 08.00.02 – "Makroiqtisodiyot" va 08.00.12 – "Mintaqaviy iqtisodiyot" mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

Ilmiy xodimlar, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish maqsadida ilmiy - metodologik seminar tashkil etilgan va u tizimli ravishda ish olib bormoqda. Seminarda xodimlarning tahliliy ishlanmalari va doktorantlarning dissertatsiyalari muhokama qilinadi.

Bugungi kunda institutda tahsil olayotgan doktorantlar va tayanch doktorantlar soni 14 nafarni tashkil etadi. Ularning 7 nafari xotin-qizlar.

Mazkur ilmiy izlanuvchilarning 5 nafari doktorantlar va 9 nafari tayanch doktorantlar bo'lib, "Makroiqtisodiyot" va "Mintaqaviy iqtisodiyot" ixtisosliklari bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lishni maqsad qilgan.

2022 yilda bir doktorant (S.Abdurahimova) fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishini muddatidan oldin himoyaga taqdim etdi.

Hozir institutda 31 nafar mustaqil izlanuvchi (4 nafari xotin-qizlar) "Makroiqtisodiyot" va "Mintaqaviy iqtisodiyot" ixtisosliklari bo'yicha tahsil olmoqda.

Ularning 19 nafari "Makroiqtisodiyot", 12 nafari "Mintaqaviy iqtisodiyot" ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim yo'nalishida mustaqil izlanuvchilar sifatida tahsil olayapti.

Doktorantlar, tayanch doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy faoliyati samaradorligini baholash maqsadida Institut direktorining 2021 yil 9 dekabrda 176-U-son "Ilmiy izlanuvchilar faoliyati samaradorligi monitoringi tartibi to'g'risida"gi buyrug'iga asosan har chorak yakunida monitoring amalga oshirilmoqda.

3.2. Ilmiy Kengash faoliyati

Institut huzurida Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoyasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 iyundagi №521-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining 2020 yil 31 dekabrda № 455-sonli Qarori bilan tasdiqlangan DSc.14/30.12.2019.1.84.01 raqamli ixtisoslashgan Ilmiy Kengash tuzilgan.

Ilmiy Kengashga 08.00.02 - "Makroiqtisodiyot" ixtisosligi bo'yicha dissertatsiyalarni qabul qilish va 08.00.12 - "Mintaqaviy iqtisodiyot", 08.00.03 - "Sanoat iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha dissertatsiyalarni bir martalik himoyaga qabul qilib olishga ruxsat etilgan.

Hisobot davrida kadrlar tayyorlash bo'yicha quyidagi natijalarga erishildi, xususan, institut xodimlaridan 4 nafari:

Muzaffar Karimov, Dilfuza Vahobova, Rahmon Paygamov va Elnora-xon Yakubova (PhD) falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasini himoya qildi.

Shu bilan birga, Ilmiy Kengashda institutning bir doktoranti - Vasila Yarashova - fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasini himoya qildi.

3.3. Vebinarlar

Institutda o'tgan yarim yilda 33 ta vebinar o'tkazildi. Institut ilmiy xodimlari institut doirasidagi vebinarlardan tashqari turli xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan onlayn va offlayn vebinarlarning 66 tasida ishtirok etdi.

Misol: Vebinar: "[Makroiqtisodiy prognozda ekonometrik modellarni qo'llash](#)" (2 mayda o'tkazilgan).

Ma'ruzachi: Dr. Akram Hasanov¹ o'zining doktorlik dissertatsiyasini 2012 yilda Malayziyaning Putra universitetida himoya qilgan.



3.4. Malaka oshirish kurslari

Institut xodimlari doimiy ravishda rejali tarzda o'z malakasini oshirib kelmoqda. Jumladan, hisobot davrida xodimlardan biri (B.Karimov) Alisher Navoiy nomli Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida davlat tilini chuqur o'zlashtirish va ish yuritish bo'yicha o'quv kursida malaka oshirdi. Shuningdek, R-dasturlash bo'yicha o'quv kursida barcha loyihalardan xodimlar ishtirok etdi. Joriy yilning 14 martida "Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksini ishlab chiqish" bo'yicha BMTTD, Kambag'allik va taraqqiyot bo'yicha Oksford universiteti tashabbusi (OPHI) tomonidan tashkil etilgan onlayn o'quv kursida sohaga tegishli xodimlar ishtirok etdi. 2022 yilning 16-27 may kunlari moliyaviy dasturlash bo'yicha o'quv seminari tashkil etildi. Bundan tashqari, 2022 yilning 28 fevralidan 14 martiga qadar "Nutq madaniyati va notiqlik san'ati" mavzusida o'tkazilgan o'quv kursida barcha ilmiy xodimlar tahsil oldi.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutida institutning yetakchi xodimlari va Tojikiston Respublikasi Davlat boshqaruvi organlari xodimlari delegatsiyasi ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.

PMTI mutaxassislari makroiqtisodiy modellarni ishlab chiqish tajribasi bilan o'rtoqlashdi va uni amalda qo'llash natijalarini namoyish etdi.

Xususan, Tojikiston delegatsiyasi vakillariga aniq prognoz-tahliliy muammolarni hal qilish uchun "Xarajatlar-ishlab chiqarish" yondashuvidan foydalanish imkoniyati namoyish etildi.

Mutaxassislar makroiqtisodiy prognozlashda, jumladan, inflyatsiya jarayonlarini tahlil qilishda zamonaviy ekonometrik yondashuvlardan foydalanishga oid savollarga javob berdi.

Uchrashuv yakunida tomonlar makroiqtisodiy diagnostika va prognozlash sohasidagi hamkorlikni davom ettirishga kelishib oldi.

¹ Avstraliya Monash universiteti Malayziya kampusiga ishga kirishdan oldin, u Malayziyadagi Putra universitetida katta ilmiy xodim (post doctoral research fellow) bo'lib ishlagan. Hozirda uning asosiy tadqiqot yo'nalishlari vaqtli qatorlarni tahlil qilish va prognozlash, amaliy ekonometrika va moliyaviy tebranishlarni modellashtirishga qaratilgan.



IFMR GREEN HUB

IV. GREEN HUB FAOLIYATI

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot va "yashil" o'sishni o'rganish va rivojlantirish uchun "Green Hub" (Yashil markaz) ni tashkil qildi.

Ayni chog'da ekologik muammolar global darajaga ko'tarilgan. "Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining tobora ommalashishi ko'p jihatdan so'nggi yillarda dunyo to'qnashgan qator muammolar, avvalo iqlim, ekologiya, oziq-ovqat, moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar bilan bog'liq.

"Green Hub" o'z oldiga qanday maqsadlarni qo'yadi?

PMTI "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish va barqaror "yashil" o'sishni ta'minlash bilan bog'liq masalaning muhimligini inobatga olgan holda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi qoshidagi ilmiy tadqiqot muassasasi sifatida Green Hubni quyidagi maqsadlarni amalga oshirish uchun tashkil etdi:

- "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish va "yashil" o'sishga erishish, jumladan, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan umumiy maqsadlar bilan bog'langan mutaxassislar tarmog'ini tashkil etish;

- alohida investitsion loyihalarning istiqbolli ekanligini kompleks baholash va milliy iqtisodiyotning iqlim o'zgarishlariga ijtimoiy taraqqiyot darajasiga zarar yetmagan holda moslashishi uchun eng yaxshi variantlarni qidira oladigan zamonaviy prognozlash va tahlil vositalarini ishlab chiqish;

- iqlim o'zgarishlari, uning iqtisodiyotga ta'siri bilan bog'liq jarayonlar, "yashil" iqtisodiyot va "yashil" ish o'rinlariga oid qoidalar haqida iqtisodiy faoliyatning barcha ishtirokchilari xabardorligini oshirish;

- "yashil" iqtisodiyot va "yashil" o'sish sohasida keng ma'lumotlar va tadqiqotlar bazasini yaratish;

- shakllantirilgan baza va bilimlardan ishtirokchilarning barchasi foydalana olishi uchun sharoit yaratish.

"Green Hub"ning missiyasi

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi qoshidagi ilmiy-tadqiqot muassasasi bo'lgan PMTI "Green Hub"ni ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida tashkil etdi. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish va barqaror "yashil" o'sishni ta'minlash "Green Hub"ning asosiy vazifasi sifatida belgilangan. "Green Hub" bu sohadagi tadqiqot muassasalari, xalqaro moliyaviy institutlar, korxonalar va ekspertlarning birlashmalarini jalb qilgan holda "yashil" iqtisodiyot qoidalariga asoslanadi.

"Green Hub"ning vazifalari

1. Mavjud texnologik taraqqiyot darajasi, investitsion resurslarning cheklanganligi va past uglerodli rivojlanishning yuqori kapital sig'imliligi, kambag'allikni qisqartirish va boshqa ijtimoiy vazifalarni hal etish zaruratini inobatga olgan holda milliy iqtisodiyotni "yashil" iqtisodiyotga aylantirishning milliy modelini shakllantirish.

2. Uglarod izini baholash uchun real sektor tarmoqlari uchun ham, butun iqtisodiyot uchun ham, uning o'rtacha va uzoq muddatli istiqboldagi taraqqiyotida turli ssenariylar va ustuvor yo'nalishlarniko'zda tutuvchi zamonaviy modellar jamlanmasini ishlab chiqish.

3. Past uglarodli muayyan investitsion loyihalarni tatbiq qilish oqibatlarini baholash uslubini nafaqat issiqxona gazlarini qisqartirish mezonlari, balki ularning resurslarni tejash va milliy iqtisodiyotning energiya sig'imdorligi, yangi ish o'rinlarini yaratish, davlat va aholi daromadlarining o'sishiga qanday ta'sir qilishini baholash bo'yicha ham puxta ishlab chiqish.

4. Past uglarodli iqtisodiyotning rivojlanishi va milliy iqtisodiyotning "yashil" iqtisodiyotga aylanishidagi ijobiy ijtimoiy ta'sirni kuchaytirish imkonini beruvchi investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur institutsional muhitni yaratishga oid masalalarni tadqiq qilish.

5. "Yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlaydigan moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqish.

PMTIning "yashil" iqtisodiyot sohasidagi faoliyati

PMTI bugunga qadar "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha yetarlicha tajriba to'pladi:

- "Yashil iqlim fondi uchun loyiha taklifini tayyorlash bo'yicha qo'llanma" deb nomlanuvchi o'quv qo'llanmasi chiqarildi;
- suvdan foydalanish samaradorligi indeksi baholandi;
- 2020 yilda O'zbekiston qishloq xo'jaligida issiqxona gazlari chiqindilari hajmiga baho berildi;
- transchegaraviy uglarodni tartibga solish (CBAM) mexanizmining O'zbekiston eksportiga ehtimoliy ta'siri o'rganib chiqildi;
- PMTI xalqaro tadbirlarda "yashil" iqtisodiyot masalasiga alohida e'tibor qaratdi;
- "Suv hayot va kelajak asosidir!" videoroligi tayyorlandi;
- 2021 yilda ushbu yo'nalishdagi mavzular bo'yicha onlayn vebinarlar o'tkazildi.




IFMR GREEN HUB

**O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT
VA YASHIL O'SISHNI O'RGANISH HAMDA
RIVOJLANTIRISH UCHUN YASHIL PLATFORMA**

**A GREEN PLATFORM FOR THE STUDY
AND DEVELOPMENT OF GREEN ECONOMY
AND GREEN GROWTH IN UZBEKISTAN**



 10001, O'zbekiston,
Toshkent shahri,
Xadra mavzesi, 33



V. XORIJIY TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIK

2022 yilning 20 aprelida Germaniya iqtisodiy guruhi (GET) hamda "Berlin Economics" bilan birgalikda PMTI da institutni xalqaro aql markaziga aylantirishda jahon standartlarini qo'llash bo'yicha bir qator seminarlar o'tkazildi.

GET eksperti, Shlezvig-Golshteyn federal yerining sobiq vaziri, janob Yost De Yager² o'z taqdimotida PMTIning bundan keyingi rivojlanishida xalqaro modelga mos bo'lgan asosiy tamoyillarni taqdim etdi.

Seminar natijalariga ko'ra, hamkorlikning keyingi yo'nalishlari belgilab olindi:

- baynalmilallashish;
- xodimlarni boshqarish strategiyasi;
- chiquvchi ma'lumotlarni nazorat qilish standarti va sifatini ta'minlash.

Institut ilmiy xodimlari xalqaro tashkilotlarning vakillari bilan 21 ta uchrashuv va 6 ta xalqaro anjumanda ishtirok etib, iqtisodiyotning turli yo'nalishlarida hamkorlik qildi.

Institut xodimlari bir qator xalqaro anjumanlarda ham ishtirok etdi:

² Yost de Yager 2009 yildan 2012 yilgacha Shlezvig-Golshteyn federal yerining fan, iqtisodiyot va transport vaziri bo'lgan. U shuningdek, 2017 yilda iqtisodiy siyosat bo'yicha dunyodagi yeng yaxshi 15 ta ilmiy tadqiqot instituti ro'yxatidan joy olgan Kil jahon iqtisodiyoti institutining faoliyatini baholash bilan ham shug'ullangan.


"Turkiya Respublikasi Prezidentining O'zbekistonga rasmiy tashrifi yakunlari: ko'p tomonlama munosabatlarning yangi bosqichi" mavzuida xalqaro davra suhbatlari
Toshkent, 13 aprel;

III xalqaro reyting forumi, Toshkent, 7 may;

Valday klubining "Rossiya-Markaziy Osiyo: beqarorlik sharoitida hamkorlik va taraqqiyot" mavzusidagi Markaziy Osiyo konferensiyasi, 17-18 may (Rossiya);

Jahon banki tomonidan tashkil etilgan "iqtisodiy taraqqiyotni samarali boshqarish" dasturi bo'yicha mintaqaviy konferensiya, 24-25 may;

Kambag'allikni qisqartirish xalqaro forumi, Buxoro, 26-27 may.



[O'zbekiston Iqtisodiy forumida dunyo va mintaqa ekspertlari bilan birgalikda muhokama qilingan dolzarb mavzu](#)



VI. INSTITUT XODIMLARI

Institutda 2022 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, ilmiy xodimlarning shtatlar ro'yxatida mavjud 53 ta o'rindan 42 tasida ilmiy xodimlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shularning 67 foizini erkaklar va 33 foizini ayollar tashkil etadi. Faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy xodimlarning 22 nafari ilmiy darajaga ega. Ulardan 7 nafari fan doktori ilmiy darajasiga ega. Ilmiy darajaga ega xodimlarning 9 nafari (41%) ayollar tashkil etadi.

2022 yilning birinchi yarmida jami 6 nafar boshqaruv xodimi, shu jumladan, 5 nafar ilmiy xodim ishga qabul qilindi. Ishga qabul qilingan xodimlarning ta'lim darajasi:

Bakalavr – 1 nafar;
Magistr – 4 nafar;
PhD – 1 nafar.

Institutga ishga olingan ilmiy xodimlar quyida keltirilgan nufuzli oliy ta'lim muassasalarida tahsil olgan:

Institutda 2022 yilda qabul qilingan ilmiy xodimlar quyida keltirilgan nufuzli oliy ta'lim maskanlarida tahsil olgan:



UNIVERSITY OF
HOHENHEIM

